

SOLIQ TIZIMINING MOHIYATI VA XORIJY MAMLAQATLAR SOLIQ TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI

Shirinbayeva Sevinch Faxriddin qizi
TDIU Samarqand filiali, 2-bosqich talabasi
Karimova A.M
Ilmiy raxbar: TDIU Samarqand filiali, dotsenti

Annotatsiya: Dunyo mamlakatlarining har biri o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot yo'liga ega. Soliq tizimi esa davlat iqtisodiyotining ajralmas qismidir. Ushbu maqolada soliqning umumiy tushunchasi, tadqiqot olib borilgan olimlarning fikrlari, respublikamiz bilan bir qatorda jahonning boshqa bir qancha mamlakatlarida amalda bo'lgan soliq qonunchiligi to'g'risida ma'lumotlar va tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: soliq tizimi, soliq, mol-mulk solig'i, daromad solig'i, QQS, aksiz solig'i, soliq stavkalari.

Annotation: each of the countries of the world has its own path of economic development. And the tax system is an integral part of the state economy. This article presents information and analyzes about the general concept of taxation, the opinions of the scientists under study, about tax legislation in force in several other countries of the world, along with our republic.

Keywords: tax system, tax, property tax, income tax, VAT, excise tax, tax rates.

KIRISH

Mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlami amalga oshirishda awalam bor soliq siyosatini yanada takomillashtirish, soliqlaming turlari va ulaming amal qilish mexanizmini soddallashtirish muhim masalalardan hisoblanadi. Mamlakatimiz rahbari o'z ma'ruzalarida soliq to'lovchilarga soliqqa tortish tizimida qo'shimcha imtiyozlar va preferensiyalar berish, soliqlami unifikatsiya qilish, soliq yukini yengillashtirish, soliq qonunchiligining barqarorligini ta'minlash hamda ushbu yo'nalishda ilg'or mamlakatlar ijobjiy tajribalaridan foydalanih lozimligini ta'kidlab o'tdilar. Bundan tashqari, mamlakat Prezidenti «... islohotlami chuqurlashtirish, iqtisodiyot, soliq budjet siyosatini yanada erkinlashtirish, bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish» asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tdi.

O'rganganlik darajasi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sohaga oid ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan, va soliqlar tushunchasiga turli xil ta'riflar berilgan. Xususan, «Soliqlar, — deb yozadi D.Rikardo, — hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir-oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to'lanadi».⁵ Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, D. Rikardo soliqlar mohiyatini yoritib, o'z navbatida A.Smit tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini m'a'lum darajada rivojlantirgan. S.G. Pepelyayev «Soliq — ommaviy hokimiyat subyektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda xolisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi

⁵ Рикардо Д. Сочинения т. I. Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с англ. — М.: Госполитиздат», с. 360.

bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontributsiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir»⁶ – deb, ta'kidlagan. D.G. Chemikning fikricha «Soliqlar – davlat tomonidan xo'jalik sub'yektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'inlami o'zida aks ettiradi». ⁷ Soliqlar davlat budgeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim quroq hisoblanadi. Biroq bu ta'rif soliqlaming mohiyatini tolaligicha yorita olmaydi hamda soliqlaming tashkiliy-huquqiy tomonlarini o'zida aks ettira olmaydi. Bundan tashqari, iqtisodiy munosabat sifatida, bu munosabatlar ob'yekti bo'lib nima hisoblanadi, degan savollarga javob bera olmaydi.

Ayrim iqtisodchilar soliqlami milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash vositasi sifatida izohlashga harakat qilganlar, – «Soliqlar – milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir». ⁸ O.Olimjonovning fikriga ko'ra: «Soliqlar – davlat va jamiyatning pul mablag'iariiga bolgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'matilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan tolovlardir». ⁹ Soliqlarga berilgan mana shu ta'rif eng maqbul ta'rif bolib, soliqlaming mohiyati, ulaming iqtisodiyotdagi o'mi va rolini, soliqlaming harakat jarayonini nazariy jihatdan chuqurroq yoritib, soliqlar haqida aniqroq tasawur hosil qilishga yordam beradi. Bugungi kunda soliq kategoriyasini har tomonlama, kengroq va batafsilroq, shuningdek, uning mohiyati va ahamiyatini, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va o'rmini, soliqlaming nazariy jihatlarini aniqroq va to'liqroq yorita oladigan ta'rifni keltirish muammosi fanda mavjuddir.

Asosiy qismi. Xammazga ma'lumki, soliq tizimi bevosita davlat byudjeti bilan ham chambarchas bog'liqdir. Chunki davlat byudjetining asosiy qismini mamlakatdagi soliqlar va tushumlar tashkil etadi. Soliqlar to'g'risida har birimizning tushunchamiz va fikrlarimiz bor, albatta. Ammo "soliq tizimi nima degan?" savolga javob topish biroz mushkul. Demak, soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydo bo'lishi va faoliyatining davomiyligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu o'rinda soliq kategoriysi davlatni iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqelik sifatida yuzaga chiqishini ta'kidlash lozim. Soliq tushunchasi tor ma'noda davlat ixtiyoriga soliq to'lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi.¹⁰ Soliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni davlat o'zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlaming amal qilishi bu ob'yektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha sub'yektlar ham real sektorda, ya'ni ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki faoliyati iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni ob'yektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda-jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlarni ob'yektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari,

⁶ Пепеляев С. Г. Основы налогового права. - М.: 1995, 24 с.

⁷ Черник Д. Г. Налоги в рыночной экономике. «Финансы», 1992, №3, с. 19.


⁸ O'limasov A., Sharixojayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Mehnat», 1995-y. 377-bet.

⁹ Olimjonov O. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. «Hayot va iqtisod», 1992.

¹⁰ Soliqlar va soliqlarga tortish: Olyi o 'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.V. Vahobov, A.S. Jo'rayev; O 'zR Olyi va O 'rta-maxsus ta 'lim Vazirligi, Toshkent Moliya in-ti, — T.: Sharq, 2009. — 448 b.

asosan, davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliq tizimiga, xususan, soliqlar yoki ularga tenglashtirilgan to'lovlar tizimi (majmui) sifatida qarash mumkin emas. Soliq tizimining tarkibiy unsurlariga soliqlarni belgilash va amalga kiritish tartibi, soliqlarning turlari, ularni byudjet darajalari o'rtasida taqsimlash tartibi, soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va uslublari, soliq to'lovchilarning huquqlari, majburiyatlari, ularning manfaatlarini himoya qilish usullari, soliq munosabatlari ishtirokchilarining javobgarligi kiradi. Soliq tizimini ana shu elementlarning majmuasidan iborat bo'lgan va ular o'rtasidagi munosabatlar majmuasidan kelib chiqqan holda ifodalash mumkin.¹¹




1.rasm. O'zbekiston Respublikasidagi umumdavlat soliqlari

Bugungi kunga kelib, soliq turlari va soliq stavkalari kamaytirilishiga qaramay, davlat byudjetidagi soliq tushumlari avvalgi yillarga nisbatan ancha o'sgan. Masalan, quyidagi 2.rasm orqali 2021 va 2022-yillardagi soliq tushumlaridagi farqni ko'rishimiz mumkin. Respublika bo'yicha 2022-yilda soliq organlari tomonidan 148,4 trln so'm tushumlar ta'minlandi. Bu 2021-yilga nisbatan (20,4 trln so'm) 16% ko'p.

Jumladan, soliq turlari kesimida:

- mol-mulk solig'idan 4 trln so'm undirilib, 2021-yilga nisbatan 1,6 trln so'mga yoki 63 %;
- yer solig'idan 5,8 trln so'm undirilib, 2021-yilga nisbatan 1,2 trln so'mga yoki 30 %,
- AOSdan 2,5 trln so'm undirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 863 mlrd so'mga yoki 52 %;
- QQSdan 32,8 trln so'm undirilib, 2021-yilga nisbatan 7,2 trln so'mga yoki 28 %;
- JShODSdan 24,3 trln so'm undirilib, 2021-yilga nisbatan 5,4 trln so'mga yoki 28 % o'sishga erishildi.

¹¹ J.R.Zaynalov, S.S. Aliyeva, Z.O.Axrорov, Z.J.Rasulov "Soliqlar va soliqqa tortish" 34-bet



2.rasm. Soliq organlarining 2022-yilida tushumlari¹²

Fransiya jahoning rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Fransiyada iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish Yevropada eng yuqori darajada hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlар orasida esa YaIM da majburiy to'lovlar ya'ni soliq to'lovleri va ijtimoiy sug'urta salmog'ining yuqori ekanligi bilan farq qiladi. Fransiya davlat byudjeti daromadida soliqlar tushumi 93% ni egallaydi. Egri soliqlar ya'ni QQS, ichki neft mahsulotlariga solinadigan soliq kabilar byudjetning 60%ga yaqinini tashkil etadi. Ular orasida eng salmoqlisi bu QQS bo'lib, u byudjetning soliqli daromadlari ichida 45%ni tashkil qiladi va bu soliq Fransiyada 1954-yildan buyon amal qilinib kelinmoqda. Ichki neft mahsulotlariga solinadigan soliq salmog'i esa 7-8.5% ga teng. Bu soliq turini respublikamizdagi bojxona bojiga tenglashtirishimiz mumkin.

1 jadval

Fransiya davlat byudjetini tarkibi¹³

	soliqlar	summa	% stavka
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	669962 mln.frank	41,9%
2	Jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'i	293110 mln.frank	18,1%
3	Korxonalarga solinadigan soliq	170140 mln.frank	10,6%
4	Neft mahsulotlariga solinadigan boj to'lovi	118618 mln.frank	7,3%
5	Boshqa soliqlar	245120 mln.frank	15,2%
6	Soliqsiz tushumlar	120267 mln.frank	7,4%

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i O'zbekistonda hamma uchun qat'iy belgilangan 12% stavkada bo'lsa, Fransiyada esa bu soliq progressiv xususiyatga ega. Uning stavkasi 0 dan 56.8% gacha boradi. Daromadi 18140 frankdan oshmaydigan shaxslar daromad solig'ini to'lamaydilar, eng yuqori stavka esa daromadi 246770 frankdan yuqori bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

Germaniya - sanoati rivojlangan davlatlardan biri, jahonda YaIM bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Boshqa davlatlarda bo'lgani kabi Germaniyada ham majburiy to'lovlar, soliqlar va yig'imlardan foydalilanadi. Germaniyada ham barcha mamlakatlар singari soliqlar yetakchi

¹² <https://t.me/fiskaltahlil telegram kanali>

¹³ D.G.Chernik, A.P.Pochinok,V.P.Morozov "Основы налоговой системы" -M.: 2014 г. 100-bet

o'rinni egallaydi. Jumladan, davlat byudjetining 4/5 qismini soliq tushumlari tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 123-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqliligi belgilab qo'yilgan. Germaniyada esa soliqlar haqidagi federal qonunlar (ularning bir qismi yerlarga taalluqli) bунdesrat¹⁴ roziliginini talab qiladi. Mamlakatimizda umumdavlat soliqlari to'g'ri va egri soliqlar deb guruhlansa, Germaniyada esa soliqlar tasnifi quyidagichadir:

1. Soliq tushumlaridan foydalanish huquqi bo'yicha;
2. Mulkiy soliqlar va bitimlarga solinadigan soliq;
3. Bojxona bojlari va aksizlar.

Mulkiy soliqlarga mol-mulk solig'i, meros solig'i va yer solig'i kiradi. Soliq tushumlaridan foydalanish huquqiga ko'ra federal soliqlar, qo'shma soliqlar, mahalliy soliqlar va cherkov soliqlariga bo'linadi.

Federal soliqlar — bojlar, kapital aylanmasiga solinadigan soliq sug'urta faoliyatidan olinadigan daromadga solinadigan soliq, veksel solig'i, Yevropa Ittifoqi bo'yicha soliqlar, pivo solig'idan tashqari aksizlar (spirit-aroq mahsulotlari, tuz, vinolar, yarim tayyor mahsulotlar, qahva, tamaki, mineral yonilg'ilarga solinadigan soliq).

Qo'shma soliqlar - ish haqiga solinadigan soliq va hisoblangan daromad solig'i (hozirda — 42,5%).

1-jadval¹⁵

Soliqlar

Nomi	Tushuntirish
Qishloq xo'jaligi soliqlari	Qishloq xo'jaliklari mahsulotlari narxlarini tenglashtirish
Kuzatuv kengashlari a'zolaridan olinadigan soliq	Ushlab qolishga belgilangan soliq
Pivo solig'i	Daromadning soliqqa tortiladigan qismidan
Birja bitimlari bo'yicha aylanmadan olinadigan soliq	Kapital aylanmasidan olinadigan soliq
Spirtlı ichimliklarga solinadigan soliq	Aksiz solig'i
Import uchun qo'shilgan qiymat solig'i	QQSning undurish shakli
Daromad solig'i	Daromad va mol-mulkka solinadigan soliq
Meros va sovg'a qilish solig'i	Daromad va mol-mulkka solinadigan soliq
Yong'inga qarshi soqchilik solig'i	Sug'urtaga solinadigan alohida soliq
Savdo-ishlab chiqarish jamiyatlariga solinadigan soliq	Kapital aylanmasidan olinadigan soliq
Ichimliklarga solinadigan soliq	Mahalliy soliq
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga solinadigan soliq	Daromad va mol-mulkka solinadigan soliq
Ko'chmas mulk olishga solinadigan soliq	QQSning alohida turi
Yer solig'i	Mahalliy soliq
It egalaridan olinadigan soliq	Mahalliy soliq
Ovchilik va baliq ovlash huquqiga solinadigan soliq	Mahalliy soliq
Kofe solig'i	Aksiz solig'i
Kapitaldan olinadigan daromad solig'i	Daromad solig'i undurishning bir shakli
Kapital aylanmasidan olinadigan soliq	QQS undurishning bir shakli
Foya solig'i	Daromad solig'inining alohida turi
Avtotransport vositalariga solinadigan soliq	Bitimlarga solinadigan soliq
Ish haqidan olinadigan daromad solig'i	Daromad solig'i undurishning bir shakli
Neft mahsulotlariga solinadigan soliq	Aksiz solig'i

¹⁴ Bundesrat – GFRda yerlar boshqaruvi organi

¹⁵ F.Sh.Shamsutdinov, Sh.F.Shamsutdinova "Chet mamlakatlar soliq tizimi" 2017y. 252-253-bet

Ot poygasi lotoreya va totalizator solig'i	QQS ning alohida turi
Spirtl ichimliklar sotish uchun solinadigan soliq	Mahalliy soliq
Shampan vinosi solig'i	Aksiz solig'i
Qimorxonalarga solinadigan soliq	Mol-mulk va bitingga solinadigan soliq
Tamaki mahsulotlariga solinadigan soliq	Aksiz solig'i
Choy solig'i	Aksiz solig'i
QQS	Bitimlarga solinadigan soliq
Tomosha va ko'ngilochar korxonalar daromadiga solinadigan soliq	Mahalliy soliq
Mol - mulk solig'i	Daromad va mol-mulkdan olinadigan soliq
Sug'urta solig'i	QQS ning bir turi
Veksel solig'i	QQS ning bir turi

Bu jadvalda Germaniya Federativ Respublikasida soliqlarning to'liq tafsiloti berilgan. Bu ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, Germaniya soliq tizimi mamlakatimizdagiga nisbatan ancha murakkab va soliq turlari ko'pligi bilan farq qiladi. Respublikamiz va Germaniyada amal qiladigan soliqlar qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan belgilanib, ijro etuvchi organlar tomonidan undiriladi.

Endi esa O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi soliq tizimidagi farqlar va o'xshashliklarga to'xtalib o'tamiz. Soliq - Xitoy g'aznasining asosiy manbaidir. 1994 - yilda dunyoda birinchi marta Xitoyda "Sotsializmni bozor iqtisodiga" maslashtirilgan ta'sirchan soliq tizimi tashkil qilingan edi. Soliq qonunchiligi va soliq siyosatini yaratib, amalga oshiruvchilarga quyidagi davlat organlari kiradi:

- Milliy ijtimoiy kongress va uning doimiy qo'mitasi;
- Davlat kengashi;
- Moliya vazirligi;
- Soliqqa tortish davlat ma'muriyati;
- Davlat kengashi haqidagi tarifikatsiya va taqiqlash qo'mitasi;
- Boj boshqarmasi.

O'zbekistonda esa soliq turlarini joriy etish, soliq stavkalarini belgilashga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqlidir. Soliq to'lash muddatlarini o'zgartirish to'g'risida qarorlar qabul qilish vakolatiga ega organlar: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasining bojxona qo'mitasi.

Mamlakatimizdan farqli ravishda Xitoyda bugungi kunda soliqlarning 25 turi amal qiladi. Bular quyidagicha guruhanlandi:

- Markaziy soliqlar;
- Qo'shma soliqlar;
- Mahalliy soliqlar;

Bojxona bojlari, iste'mol solig'i, bojxona undiradigan QQS, shuningdek, banklar, tashkilotlar, davlat korxonalari va xorijiy savdo korparatsiyalaridan undiriladigan xo'jalik faoliyati uchun solingan biznes solig'i markaziy soliqlar deb yuritiladi.

Qo'shma soliqlar¹⁶ QQS, tabiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq, qimmatli qog'ozlarga solinadigan soliq hamda boshqa bank va tashkilotlardan undiriladigan biznes solig'ini birlashtiradi.

Mahalliy soliqlar korxonalar foydasiga solinadigan soliq, boshqa manbalardan undiriladigan biznes solig'i, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i, gerb yig'imlari, meros uchun soliq, yer qiymatini oshirganlik uchun soliq va boshqalarni o'z ichiga oladi. Faoliyat turlariga ko'ra soliqning quyidagi stavkalari belgilangan:

Transport xizmati - 3%

Qurilish, muhandislik ishlari - 3%

Moliyaviy faoliyat - 8%

Pochta va telekommunikatsiyalar - 3%

Madaniyat va sport - 3%

Xordiq chiqarish - 5-20%

Nomoddiy aktivlar xarid qilish - 5%

Ko'chmas mulkni sotish - 5%¹⁷

Soliq stavkalari tovarlar guruhi va ayrim guruhlar tarkibi bo'yicha tabaqlantirilgan. Bundan ko'zlangan maqsad esa soliq to'lovchilarning daromadini baravarlash hisoblanadi. Asosan, foizli stavkalar qo'llanadi va ayrim tovarlar bo'yicha qat'iy pulda belgilangan stavka ham ishlatiladi. Masalan, chekish maxsulotlari bo'yicha 25-50%, alkagol ichimliklar bo'yicha 5-25%, kosmetika 30%, zargarlik buyumlari 5-10%, benzinning bir litr uchun 0,2-0,28 yuan olinadi. Chetdan keltiriladigan iste'mol tovarlari uchun belgilangan stavka bilan boj qiymatidan olinadi.¹⁸ Davlatimizda esa 2023-yil 1-fevraldan boshlab neft mahsulotlari hamda ishlab chiqarilagan alkagol va tamaki mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i stavkalari 10 foizga indeksatsiya qilindi. 2023-yil 1-yanvardan boshlab alkagol va tamaki mahsulotlarini import qilishda aksiz solig'i stavkalari 5 foizga pasaytirildi.¹⁹

Xulosa. Soliq tizimi shu kunga qadar hech bir mamlakatda mukammal tarzda tatbiq etilgan deya olmaymiz, shuning uchun ham bu sohada doimiy o'zgarishlar kuzatiladi. Davlatimizda amalda bo'lgan soliq qonunchiligini boshqa mamlakatlar bilan taqqoslasak, respublikamizda soliq yuki ancha kamligi, soliq stavkalarining dunyo mamlakatlaridagiga nisbatan past ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bularning barchasi davlat iqtisodiyotini rivojlantirish, yashirin iqtisodiyot ko'lagini kamaytirish, soliq tushumlarini oshirish uchun xizmat qilmoqda. Davlat iqtisodiga ta'sir etuvchi qarorlar ta'sirini 1-2 yil mobaynida sezish mushkul, ular yillar mobaynida o'z ta'sirini namoyon etadi. Shu bois respublikamizdagagi soliq qonunchiligi, soliq tizimi haqida ham oldindan fikr bildirish har doim ham to'g'ri bo'lmasligi mumkin.

¹⁶ Qo'shimcha to'lanadigan soliq – Xitoya foydaga solinadigan soliq stavkasi asosan markaziy hokimiyat tomonidan belgilansa (30%), unga qo'shimcha ravishda mahalliy hokimiyat 3% "mahalliy" soliq stavkasini o'rnatadi.

¹⁷ F.Sh.Shamsutdinov, Sh.F.Shamsutdinova "Chet mamlakatlar soliq tizimi". 2017 y. 352-bet

¹⁸ F.Sh.Shamsutdinov, Sh.F.Shamsutdinova "Chet mamlakatlar soliq tizimi" 2017 y. 353-bet

¹⁹ <https://t.me/fiskaltahlil> telegram kanali

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рикардо Д. Сочинения т. I. Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с англ. — М.: Госполитиздат», с. 360.
2. Пепеляев С. Г. Основы налогового права. -М.: 1995, 24 с.
3. Черник Д. Г. Налоги в рыночной экономике. «Финансы», 1992, №3, с. 19.
4. Gataulin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. Т.: 1996. 18-bet.
5. O'lmasov A., Sharijxojayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. -Т.: «Mehnat», 1995-y. 377-bet.
6. Olimjonov O. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. «Hayot va iqtisod», -Т.: «Mehnat», 2014-y.
7. Soliqlar va soliqqa tortish: Oliy o 'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.V. Vahobov, A.S. Jo'rayev; 0 'zR oliy va o 'rta-maxsus ta 'lim vazirligi, Toshkent Moliya in-ti, -Т.: Sharq, 2009. — 448 b.
8. J.R.Zaynalov, S.S. Aliyeva, Z.O.Axrорov, Z.J.Rasulov "Soliqlar va soliqqa tortish" -Т.: «Mehnat», 2015-y. 58-bet
9. F.Sh.Shamsutdinov,Sh.F.Shamsutdinova "Chet mamlakatlar soliq tizimi"
10. <https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-davlat-byudjeti-daromadlari-tahlili-re.html?page=2> sayti
11. <https://review.uz/uz/post/gosbyudjet-na-2022-god-analiz-osnovnx-pokazateley> sayti
12. <https://t.me/fiskaltahlil/64> sayti
13. <https://review.uz/uz/post/jismoniy-shaxslardan-olinadigan-mol-mulk-soligi-qanchaga-oshirilishi-mumkinligi-malum-qilindi>